



YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 149 (1210), 2024-yil 26-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Buyuk o'zbek yo'li



YOSHLARIMIZ – YANGI O'ZBEKISTONNING BUGUNI VA KELAJAGI

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning noyob tizimi yaratildi. Shu asosda farzandlarimizni zamonaviy kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida muhim natijalarga erishilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 18-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni

o'tkazish to'g'risida"gi qarorida ushbu samarali va ta'sirchan tizim mohiyatini ochib berish zarurligi belgilangani bejiz emas. Chunki bugun ayni shu tizim asosida amalga

oshirilgan ibratli ishlar O'zbekistonning yoshlar siyosati ko'plab davlatlar uchun munosibligidan dalolat beradi.

Davomi 3-beta

Yangicha yondashuvlar



Majburiy mehnatmi yoki IQTISODIY RIVOJLANISH?

O'ZBEKISTON ENG TO'G'RI YECHIMNI TANLADI

O'zim amerikalik ekanimga qaramay, meni doim O'zbekiston bilan bog'lab turadigan jihatlari bo'lgan. Mamlakatning oilamiz bilan bog'liqlik tomonlari ham bor. 1970-yillarda qaynotam bu yerda bo'lganini ko'p eslardir. Mening ilk tashrifim esa 1994-yilga to'g'ri keladi. Shundan beri O'zbekistondagi o'zgarishlarni kuzatib boraman. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi rivojlanishlar ko'lami juda hayratlanarli. Mamlakat barcha sohalarida katta o'zgarish va yutuqlarga qadam qo'yib, Markaziy Osiyoning eng istiqbolli davlatlaridan biriga aylanganini ko'rish qiyin emas. Prezident tomonidan ilgari surilayotgan tashabbus va islohotlar O'zbekiston salohiyatini jahon maydonida namoyon etmoqda.



Xorijlik tadbirkor sifatida bu meni ham befarq qoldirmadi. 2018-yilda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha islohotlarda ishtirok etish taklifini olganimizda mamnuviyat bilan rozi bo'ldik. O'sha yili oilamiz bilan birgalikda O'zbekiston – AQSH qo'shma korxonasi – "Silverleaf Cotton Tracing"

(SCT)ga asos soldi. Jizzax viloyatida paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etib, ayni paytda faoliyatini takomillashtirib boryapmiz. Qariyb 12 ming gektar yerda paxta yetishtirib, to'liq qayta ishlaymiz va tayyor mahsulotlarni Yevropa bozorlariga eksport qilamiz.

Davomi 4-beta

Inson qadri uchun

QATAG'ON QURBONLARI: HAYOTI IBRAT, XOTIRASI BARHAYOT

Elparvar jadid bobolarimiz yurtimiz ozodligi va taraqqiyoti yo'lida, kerak bo'lsa, jonini ham fido qilgan. Shu bois, biz uchun bugungi mustaqillik, tinchlik, erkinlik sharoitida ularni eslash, e'zozlash ham qarz, ham farzdir.



shifokorlar, diniy ulamolar, harbiy yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtodoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori bilan bu borada yangi vazifalar, muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Bugun bu nafaqat ularning avlodlari, balki butun xalqimiz yuragidagi og'riqdir. Shu bois, oradan qancha vaqt o'tsa-da, barchamiz o'sha mudhish davrni chuqur iztirob va qayg'u bilan eslaymiz.

Shukrki, mamlakatimizda nohaq qatag'onga uchragan insonlar xotirasini abadiylashtirish, jadid bobolarimiz hayotini o'rganish bo'yicha xayrli ishlar ko'lami kengaydi. Xususan, oxirgi uch yilda Oliy sud tomonidan siyosiy qatag'on qurbonlarining 1200 nafardan ziyodi oqlandi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtodoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori bilan bu borada yangi vazifalar, muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Davomi 2-beta

ORZULAR – TAMADDUN ASOSI

Munosabat



Bugun dunyoning ma'naviy qiyofasi o'zgarib, jamiyatlar o'rtasidagi nizolar tobora avj olyapti. Mana shunday murakkab vaziyatda yurt taqdiri, xalq farovonligi, ozodlik va erk tushunchalarining ahamiyati oshdi.

Xo'sh, bunday jarayonda insoniyat oldida qanday vazifa turibdi? Uning kelajakka da'vosi nima? Bunga Erkin Vohidovning quyidagi misralari orqali javob axtarsak: "Hurriyat – nomusor, nafsoniyatdir, Qadrin bilgan elga mangu niyatdir".

Bugungi kunda ulkan marra va maqsadlarni ko'zlab odimlayotgan yangi O'zbekiston dunyo nigohida. Buning sababini jamiyatimizdagi ijtimoiy tenglik, barqaror iqtisodiy siyosat, qo'shni davlatlar bilan

do'stona aloqalar mustahkamlanib borayotgani bilan izohlasak, to'g'ri bo'ladi. Shu bilan birga, yurt taraqqiyotida ezgu va buyuk g'oyalarga zamin bo'layotgan mustaqillikning ahamiyati yuqori.

Ayni kunlarda "Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" g'oyasi ostida mustaqilligimizning o'ttiz uch yilligini nishonlash arafasida turibmiz.

Davomi 2-beta

Dolzarb mavzu

SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM XIZMATI:

INSON SOG'LIG'I XAVF OSTIDA QOLGANDA

Sog'lom tana vujudida biror kasallik yoki jismoniy kamchilik yo'q, deganiga emas. Bu odam organizmining mehnat qilish, ovqatlanish, dam olish, umuman, erkin harakatlanish imkonini beradigan yaxlit tizimi me'yorida ishlab turishidir. Ushbu me'yor buzilsa ham ko'pchilik to'yib qolmaguncha "Erta-indin do'xtirga borarman", deb yuraveradi...

Bir kun kelib, to'satdan paydo bo'lgan jismoniy og'riq, kasallikning keskinlashuvi, baxtsiz hodisa tufayli mayib bo'lish, zaharlanish kabi inson hayotiga xavf soladigan vaziyatlar yarim tunda, uyda, ishxona yoki ko'chada yuzaga kelganda shoshilinch tibbiy yordam talab etiladi.

Bunday tibbiy yordamning o'ziga xos jihatlari bor. Avvalo, imkon qadar vaziyatni tezkor tahlil qilish, bemor holatini barqarorlashtirib, keng ko'lamda sifatli va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish zarur.

Davomi 5-beta





Inson qadri uchun

QATAG'ON QURBONLARI:
HAYOTI IBRAT,
XOTIRASI BARHAYOT

Boshlanishi 1-betda

Qaror hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o'rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash kabi maqsadlarga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

— Oldimizda turgan muhim vazifalardan biri tariximizga xolislik va adolatlik nuqtayi nazaridan qarab, uni xalqimizga yetkazib berishdir, — deydi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori Baxtiyor Hasanov. — Bugun yurtimizda keng ko'lamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshlandi. Ko'rilgan sa'y-harakatlar natijasida ayni paytgacha qatag'on qurboni bo'lgan 60 mingdan ortiq yurtdoshimizni aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Endi bu insonlarning pok nomini tiklash bilan birga mahallalarda, umumta'lim maktablarida, har

bir qishloq va ovullarda "Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari", stendlar va boshqa ko'rgazmali vositalar tashkil etiladi.

Shuningdek, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning hududlardagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyi mavzuga doir ma'lumotlar, ashyoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib boriladi.

Qarorda ikki oy muddatda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'onga uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish tartibini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish belgilangan.

Shu bilan birga, qatag'on qilinganlar haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ko'p jildli "Qatag'on qurbonlari" kitobini chop etish hamda ularning nomlarini Toshkent shahridagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasida barpo qilinadigan ramziy kitob sahifalariga kiritish ishlari davom ettiriladi.

Qaror bilan siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan vatandoshlar hayoti va faoliyatini o'rganish, xotirasini abadiylashtirish borasida

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etildi. Har yili oktyabr oyining birinchi haftasi Siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlanadi.

Qatag'on qurboni bo'lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish, ularni nomma-nom aniqlash, tarixiy xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar, turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarini to'plash va tadqiq etish, ommalashtirish uchun ishchi guruhlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

— Hujjatda respublika komissiyasi ishchi organini tuzish vazifasi ham belgilangan, — deydi O'zFA Tarix instituti direktori o'rinbosari Dilnoza Jamolova. — Bu esa, o'z

navbatida, jamoamiz oldiga qator vazifalarni qo'yadi. Eng muhimi, qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalariga oid, davlat arxivlarida saqlanayotgan muayyan arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish choralarini ko'riladi. Bu esa vazirlik va idoralarga qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarining nomlarini

birgalikda Tarix institutining "Jadidlar.uz" elektron platformasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, elektron adabiyotlar, tarixiy manbalar, jadid matbuoti namunalari va audiovizual mahsulotlar bilan boyitib boradi.

Yana bir muhim jihat. Qatag'on qurbonlarining avlodlari va yaqinlari, o'sha davr voqealariga guvoh bo'lgan insonlarning



aniqlash borasida izlanishlar olib borish uchun respublika komissiyasi tavsiyasiga asosan tegishli idoraviy arxivlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan, jadidlariga tegishli asarlar, hujjatlar ta'mirlanadi va raqamlashtiriladi. Fanlar akademiyasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan

xotiralarini yozib olinib, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy manbalar, noyob suratlarga to'planadi.

— Oxirgi yillarda mamlakatimizda tarixga munosabat tubdan o'zgardi, — deydi siyosiy fanlar doktori, professor Saidxon Saidolimov. — Boy va qadim tariximizga yangicha nigoh bilan qarash, uning ochilmagan sahifalarini

Munosabat

ORZULAR —
TAMADDUN ASOSIHayitboy HASANOV,
"Kelajak bunyodkori" medali sohibi

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan vazifalar eng ulug', eng aziz bayramning ahamiyatini yanada teran anglashimizga imkon yaratmoqda.

Qarorga muvofiq, respublikamizning chekka hududlaridagi yoshlar ham birlashib, istiqbolni tarannum etadi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, yoshlar masalasi davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri. Bu borada yoshlarga munosib sharoit yaratish, istiqbolni, sifatini ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi, umuman, farovon yashashi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinyapti.

Birgina o'zim tug'ilgan So'x tumanidan qiyos. Ikki yildan buyon tumanning Sarikanda mahallasida yoshlar yetakchisi vazifasini bajarib kelaman. Bundan bir necha yillar oldin mahallamiz yoshlari ish izlab chet el yoki boshqa viloyatlarga ketardi. Asosiy sabab ish o'zini yetarli emasligi, yoshlarning kasb bilimlasligida edi. Lekin bunda ularni ayblab ham bo'lmaydi. Chunki ko'pchilik biror hunarni o'rganish yoki sport bilan shug'ullanishga qiziqadi. Ammo sharoit yo'qligi tufayli bular imkonsiz edi. Yana ko'pchilik yoshlarda o'qish istagi bor-u, ammo mablag' tomonidan qiyonlab, farzandini o'qita olmayotgan ota-onalar ham ko'p bo'lgan.

Yaqin yillar ichida bu manzara tamomila o'zgardi. Avvalo, zamonaviy maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, ta'mirlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash borasidagi ulkan bunyodkorlik ishlari tumanimiz hayot tarziga o'ziga xos o'zgarish va yangilanishlar olib kirdi. Bugungi kunda mahallada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, og'ir sharoitda yashab kelayotganlarning turmush tarzini yaxshilash maqsadida qamrovli ishlar qilinmoqda. Jumladan, mahalla yoshlari uchun "Harbiy qismda bir kun" loyihasi yo'lga qo'yilgan, har oy loyiha doirasida ishisiz va uyushmagan 20 nafarga yaqin



yosh unga jalb etilmoqda. Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad — yoshlarda armiyamiz qudratiga ishonch, faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Keyingi yillarda yoshlarga hayotda o'z yo'lini topishi uchun katta ko'mak berilmoqda. Jumladan, mahallamiz yoshlari bandligini ta'minlash maqsadida 10 yilga ijara asosida yer ajratib berildi. Ular o'zini ish bilan ta'minlash bilan birga tengdoshlarini safiga qo'shmoqda.

Shuningdek, "Yoshlar daftari"ga kiritilganlarning haydovchilik guvohnomasi uchun to'lovning muayyan qismi to'lab berildi. Tadbirkorlik tashabbusi bilan chiqqanlariga zarur asbob-uskuna va mehnat qurollari xarid qilish uchun subsidiyalari ajratildi. Oliyoghlarda ta'lim olayotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar kontrakt to'lovining bir qismi oliy ta'lim muassasalariga o'tkazib berildi.

Yana bir quvonarli tomoni, "Tashabbusli budget" loyihasida Sarikanda mahallasi tomonidan mini futbol stadioni qurish bo'yicha qo'yilgan loyihaga 1 milliard so'm yutib olindi. Ushbu mablag' evaziga mahalla yoshlari uchun zamonaviy mini futbol stadioni bilan birga voleybol maydoni, yuvinish xonasi va ushbu kichik sport kompleksini yoritish uchun quvosh panellari o'rnatilishi rejalashtirilgan. Umuman olganda, mahalla yoshlarining orzulari yangi tamaddunga asos bo'lmoqda.

Qaror va ijro

O'z yurtiingda ishlab,
oila bag'rinda yashashga ne yetsin!

Bir olam orzu og'ushida maktabni bitirgan Asqar hayotda hammasi ham o'zi istaganidek bo'lavermasligini keyin angladi. Avval tengdoshlari qatori universitetga hujjat topshirdi. Ammo kirish uchun yetarli ball to'plolmadi. Bir oz shiddatli so'nib, nima qilishini bilmay yurdi. Biror joyda mehnat qilay desa, tayinli ish yo'q. Bekorchilik bilan bir yili behuda o'tib ketganini sezmay qoldi. Oxiri astoydil ish topishga harakat qildi. Qo'shni tumandagi sexga yordamchi bo'lib ishga kirdi.

Mehnat qilib, qo'lga maosh tegdi. Lekin topgani xayolidagidan ancha kam edi. U birdan katta mablag'ga ega bo'laman, degan o'yda yurgandi. Shu sababli bu yerda ham ko'p qololmadi. Natijada yana o'sha bekorchilik boshlandi. Bu orada qishloqdoshlaridan biri xorijga ishga ketayotgani haqida eshitib qoldi. U ham chetga borishga qiziqdi. Qishloqdoshidan iltimos qilib, unga qo'shilib olis yurtga otlandi.

Hech qaysi joyda shunchaki, o'ynab pul topib bo'lmasligini Asqar sovuq o'lkada yurib bildi. Tonda turib, izg'irinda beton qorib, g'isht terishni eplagan odamga o'ylik berilarkan. Na iloj, keldingmi, ishlash kerak. Qancha qiyinchilik bo'lsa-da, chidashga majbur edi. Ammo sabrning ham chegarasi bor. Ko'pi bilan uch-to'rt oy ishlay oldi, xolos. Oxiri boshqa hududga o'tib ketdi. Yangi joyda ham ish oson emasdi. Topayotgan mablag'ini bir amallab ortirmasa, uyiga jo'natish ham ancha mushkul.

Shu tariqa ikki-uch yil yurdi. Topganida baraka bo'lmadi. Bu orada qishlog'iga bir necha marta borib keldi. Har borganida mahallasida nimagadir chog'lanar, ammo nima qilishni bilmay qaytardi. Shu tarzda besh-olti yil kelib-ketib, ishlab yurdi. Keyinchalik oila ham qurdi. Endi oldingidek oilasini tashlab, ko'p vaqt olisga ketishga imkoni yo'q. Uzog'i bilan besh-olti oy ishlab, farzandlari oldiga shoshadigan bo'ldi. Lekin bu holat uni ancha toliqtirib qo'ygandi. Bahorda uyiga qaytgan Asqar mahallasida yoshlarga yer ajratib berilayotganini eshitdi. Bu

xabar uni quvontirdi. Anchadan beri yer olib, dehqonchilik qilishni ko'ngliga tugib yurgandi. Chindan ham u yashaydigan Chiroqchi tumani Chorshanbi mahallasidagi sug'oriladigan yerdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish istagida yurgan yoshlarga yer berilayotgandi. U ham boshqalar qatori ariza bilan murojaat qildi. Mahalladagi yoshlar yetakchisi ro'yaxtaga olib, tez orada yangilik bo'lib qolishini aytdi. Qisqa muddatda shu hududdan ellik sotixdan yer berildi.



— Anchadan beri chet elda ishlash meni charchatib qo'ygandi. Yer berilgani dehqonchilik qilib, daromad topishim uchun juda qulay imkoniyat bo'ldi. Aprelda menga ajratilgan ellik sotixga no'xat, kartoshka ekdim. Shu pallada dehqonchilik bo'yicha tajribamiz borligi asqatdi. Dalada oilaviy ishlay boshladik. Dastlabki hosildan olgan daromadimiz yomon bo'lmadi. Birinchi mavsumning o'zidayoq o'ttiz million so'mdan ortiq pul ishlab topdik. Hozir takroriy ekin uchun tayyorgarlik ko'ryapmiz. Bundan ham yaxshi natijaga erishamiz deb umid qilaymiz, — deydi Asqar Mahmarahimov. — Endi musofir yurtlarda sarson bo'lib ishlab yurishga zarurat yo'q. O'z mahallamizda mehnat qilib, farzandlarimiz oldida mehnatimiz rohatini ko'rishga nima

yetgin! Ertalab dalaga chiqamiz. Poliz mahsulotlarini ko'zdan kechiramiz. Sug'orish kerak bo'lsa, vaqtda bajarishga harakat qilamiz. Mehnatimiz mahsuli esa oilamiz farovonligiga xizmat qilyapti.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, Chiroqchi tumani Chorshanbi

mahallasida migratsiyadan qaytgan, ish bilan band bo'lmagan 19 nafar yoshga 9,5 gektar yer taqsimlab berilgan. Mazkur qarorda qishloq xo'jaligidagi yer va suv resurslaridan samarali foydalanish orqali oziq-ovqat ekinlari yetishtirishni ko'paytirish, aholi, shu jumladan, yoshlar bandligini ta'minlash va daromadini oshirish maqsad qilingan. Xususan, elektron auksion orqali ijaraga oluvchi yoshlar toifasi ham belgilab berilgan. Jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Mehur daftari", "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalar farzandlariga berilishi ko'rsatilgan. Chiroqchi tumani hokimligi mutaxassislarining ma'lumotiga ko'ra, mazkur

o'rganish, buzib talqin qilingan tarixiy voqealarni xolis ilmiy tadqiq etish, bir so'z bilan aytganda, tarixiy adolatni tiklash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi arafasida e'lon qilingan ushbu hujjat vatanimizning milliy istiqloqi, xalqimiz ozodligi, millatimiz kelajagi va taraqqiyoti yo'lida kurashib, shu yo'lida jonini fido etgan, siyosiy qatag'on qurbonlari bo'lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroficha o'rganish va tadqiq etish, ularning nomlari hamda xotirasini abadiylashtirish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ'ib etishga qaratilgan bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Qatag'on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarining ibratli hayoti va faoliyatini keng targ'ib etish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari, davra suhbatlari, ta'lim muassasalari va mahallalarda uch avlod uchrashuvlari tashkil etiladi. Davlat buyurtmasi asosida spektakllar, badiiy va hujjatli filmlar yaratiladi hamda audiovizual mahsulotlar tayyorlanib, internet tarmog'iga joylashtiriladi.

Ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan "Mustaqillik darslari" doirasida qatag'on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalariga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi. Qatag'on qurbonlarining nomlari bilan bog'liq muzei va obyektlar sayyohlik yo'nalishlariga kiritiladi.

— Tan olish kerak, O'zbekiston arxivlaridagi barcha ma'lumotlarni haligacha to'liq o'rganilmagan yo'q, — deydi O'zFA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi Qahramon Rajabov. — Afuski, shu paytgacha qatag'on qurbonlarining to'liq ro'yxati shakllantirilmagan. Zero, har bir raqam ortida bir inson taqdiri bor. Ularning faoliyatini o'rganish bugungi yosh avlodni vatanimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, jisorat va ibratli faoliyatini targ'ib etishga xizmat qiladi.

Belgilanganidek, chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzei, kutubxona va boshqa ilmiy-ma'rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatgan holda mavzuga oid ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilishi bu boradagi ishlarni yanada jonlantirish, olim va tadqiqotchilarimiz uchun juda katta imkoniyat yaratadi.

Keng miqdordagi chora-tadbirlarni qamrab olgan ushbu hujjat tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o'rganish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlashga xizmat qiladi.

qaror ijrosini ta'minlash maqsadida jami 346 gektar yer 433 nafar yoshga elektron auksion orqali ajratib berilgan. Bahor oylarida dehqonchilikni boshlab yuborgan yoshlar ayni pallada hosilni yig'ishtirish bilan band. Kimdir tarvuz, yana biron qovun ekib, ichki bozorni oboq qilishga hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, yaxshigina mablag' ishlab, ro'zg'origa nafi tegmoqda.

— Men ham Chorshanbi mahallasidagi belgilangan joydan ellik sotix yer oldim. Maktabni bitirganimga ikki yil bo'lgandi. Tayinli ish topolmagach, chet elga ketish istagida yurgandim. Mahallamizdagi hokim yordamchisi "Yoshlar daftari"ga kiritib qo'ydi. Bir kuni chaqirib, shu haqda aytib qoldi. O'yab ko'rsam, bundan ma'quli yo'q ekan. Mahallamizdagi imkoniyatidan foydalanmay, musofir yurtlarda sarson bo'lishimga zarurat yo'q deb ishga kirishdim, — deydi Bekjon Mahmadiyev. — Rostini aytsam, avvaliga ancha ikkilandim. Ayniqsa, ekan urug'imiz unib chiqmasligidan bir oz cho'chidik. Ilgari bunday ishlarni mustaqil qilib ko'rmagandim. Faqat xavotirda edim. Aslida, tajribali dehqonlar ko'makchi sifatida bizga biriktirilgan ekan. Ularning bizga maslahat berib borganini yaxshi bo'ldi. Ellik sotix yerning hammasiga ertaki navli kartoshka ekib, agrotexnik tadbirlarni vaqtda bajaridik. Biz kutgandan ham yaxshi hosil berdi. Chirodiorlar kelib, dalaning o'zidan olib ketdi. Hisoblab ko'rsam, jami foydamiz yigirma million so'mdan oshib qoldi. Endi navbatdagi ekin urug'ini qadaryapmiz. Hozir brokkoli karami ko'chatini olib kelmoqchimiz. Tez orada nihollar o'tqaziladi. Malakali mutaxassislarining taklifiga ko'ra, bu poliz mahsuloti bozorbo'lib, yetishtirish talablari ham uncha qiyin emas. Asosiy, yuqori hosildorlikka erishish mumkin.

Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida tuman hokimliklari zaxirasidagi 60 ming gektar yer ochiq tanlovga qo'yilib, kichik lotlarda suv ta'minoti yaxshi joydan yoshlarga ajratib berish vazifasi belgilangan. Ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash uchun Qashqadaryo viloyati hokimi tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan, vohada 6 ming gektar yer 7584 yoshga ajratilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, bugun 9883 yosh elektron platformaga kiritilgan.

Shu yil iyun oyi holatiga ko'ra, 4677 gektar yer maydoni elektron platforma orqali 6466 yoshga ajratilgan. Bu esa qaror ijrosi ta'minlanishi natijasida yoshlar o'rtasida o'zini o'zi band qilish ko'rsatkichi ortib, turmush tarzi yanada yaxshilanayotganidan dalolat.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YOSHLARIMIZ - YANGI O'ZBEKISTONNING
BUGUNI VA KELAJAGI

Konstitutsiyamizda ilk marotaba uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojini ta'minlash davlatning vazifasi etib belgilandi. Unda ta'limga oid normalar o'z aksini topdi. Bundan tashqari, Konstitutsiyada "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi", degan norma mustahkamlab qo'yildi. Zero, intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan.

tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri deb e'tirof etilgani buning yana bir yaqqol isboti bo'ldi.

Bunda, shubhasiz, yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgani muhim ahamiyatga ega. Bosh qonunga ko'ra, "Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishiga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi".

Konstitutsiyamizda ilk marotaba uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojini ta'minlash davlatning vazifasi etib belgilandi. Unda ta'limga oid normalar o'z aksini topdi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi", degan norma mustahkamlab qo'yildi. Zero, intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan.

Bu haqda fikr yuritganda, mamlakatimizda keyingi 7 yil yoshlarni qo'llab-quvvatlash, iste'dod va salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim davr bo'lganini alohida ta'kidlash lozim. Xususan, 151 ming yoshga 1,7 trillion so'm ta'lim krediti berilgan bo'lsa, ehtiyojmand oilalarga mansub 110 ming talabning kontrakt pullarini to'lab berish uchun 332 milliard so'm ajratilgan.

Xuddi shu davrda oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga ko'tarildi. Oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 212 taga yetdi,

Buyuk o'zbek yo'li



Prezident tomonidan 2024-yil 27-iyunda "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Yoshlar

Maktab ta'limga kelsak, Prezident maktablaridagi baholash tizimi 500 ta umumta'lim maktabida ham joriy qilingani nihoyatda samarador bo'ldi. O'tgan bir yilning o'zida ayni maktablarda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi 53 foizdan 60 foizga oshdi.

Oliy ma'lumotli yoshlarning doimiy ish bilan ta'minlanishi, iqtidorli yoshlarning ta'lim kreditiga ega bo'lishi, o'z yo'lini topa olmayotgan yoshlarni kasb-hunarga qayta tayyorlash, og'ir toifadagi yoshlar bilan ishlash masalalari ham doimiy e'tiborda turibdi.



**Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikerining birinchi o'rinbosari,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori**

Boshlanishi 1-betda

**Huquqiy asos — mustaqillik va
taraqqiyot garovi**

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 36 million 963 mingdan oshgan bo'lib, 14-30 yoshgacha bo'lgan navqiron yoshlar soni 9 million 600 ming nafarni tashkil etgan. Ya'ni mamlakatimiz boshqa sohalar qatori nufus jihatidan ham, mehnatga layoqatli yoshlar ko'pligi nuqtayi nazaridan ham katta davlatga aylanmoqda.

Yoshlarimizga munosib turmush sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo'lishi lozim. Shu ma'noda, ayni masalaning yechimi ham mustahkam huquqiy poydevor — yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi taqozo etadi.

Bosh qonunimizda yoshlarga oid qator normalar o'rindi. Bunday yoshlarning yondashuv, albatta, yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanining talabi va taqozosidir.

Unda davlat tomonidan yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag'batlantirilishi kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyada qayd etilganidek: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi".

Prezidentimiz 2024-yil 28-iyunda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'kidlaganidek, mamlakatimizda keyingi yetti yil yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dod va salohiyatini ro'yobga chiqarishda "katta sakrash davri" bo'ldi. Shu yetti yil ichida yoshlarga oid 100 dan ziyod qonun va qaror qabul qilinib, 200 dan ortiq imtiyoz berilgani buning yorqin misolidir.

Bu haqda so'z borganda, xususan, BMT Bosh Assambleyasi 1999-yil dekabrda rezolyutsiyasi asosida Yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi vazirlar xalqaro konferensiyasining 12-avgustini Xalqaro yoshlar kuni deb e'lon qilish haqidagi tavsiyasini ma'qullaganini qayd etish lozim. Har yili ushbu xalqaro sanada jahon hamjamiyatining diqqat-e'tibori yoshlarga oid masalalarga yana bir bor qaratiladi.

O'zbekistonda 30-iyun — Yoshlar kuni etib belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi — Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

Agentlik, jumladan, yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Farmon bilan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturda, jumladan, O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indekslari hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish belgilangan.

Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari tuzilgani, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar masalalari bo'yicha idoralarda kengash tashkil etilgani mamlakatimizda soha rivoji sari qo'yilgan yirik amaliy qadamlar bo'ldi. Yanada muhimi, 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi hamda bu borada davlat dasturi tasdiqlandi.

**O'zbekiston — yoshlar
siyosati sohasida eng tez
rivojlanayotgan mamlakat**

Yurtimizda yoshlar siyosati borasidagi keng ko'lami ishlar dunyo miqyosida tan olinayotgani tahsinga sazovor. Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko'ra, o'tgan yili O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng



yangi o'quv yilidan ular soni yana 2 taga ko'paymoqda. Bugungi kunda 110 ming nafar yosh xorijda tahsil olmoqda.

Keyingi yetti yilda AQSHning "Pechak ligasi"ga kiruvchi Garvard, Yel, Kolumbiya, Stenford kabi 8 ta va Buyuk Britaniyaning "Russell guruhi"dagi Oksford, Kembrij, Birmingem kabi 24 ta oliy ta'lim muassasasini yurtimizdan "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali o'qishga borgan 50 nafar yosh tamomladi.

ishlari agentligi zimmasiga:

— yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish jarayonlarini takomillashtirish, talab yuqori bo'lgan chet tillarini mukammal o'zlashtirish uchun sharoitlarni kengaytirish;

— xorijiy tillarni o'qitish faoliyati bilan shug'ullanuvchi YTTlar, o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari (xususiy o'quv markazlari), ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, sohadagi muammolarni muntazam ravishda tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha takliflar tayyorlash;

— xususiy o'quv markazlari reytingini shakllantirish hamda reytingda yuqori o'rinni egallaganlarni rag'batlantirish;

— yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganishni targ'ib qilish, ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko'rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etish kabi qo'shimcha funksiyalar yuklandi.

Maktab ta'limga kelsak, Prezident maktablaridagi baholash tizimi 500 ta umumta'lim maktabida ham joriy qilingani nihoyatda samarador bo'ldi. O'tgan bir yilning o'zida ayni maktablarda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi 53 foizdan 60 foizga oshdi.

Oliy ma'lumotli yoshlarning doimiy ish bilan ta'minlanishi, iqtidorli yoshlarning ta'lim kreditiga ega bo'lishi, o'z yo'lini topa olmayotgan yoshlarni kasb-hunarga qayta tayyorlash, og'ir toifadagi yoshlar bilan ishlash masalalari ham doimiy e'tiborda turibdi.



qo'llab-quvvatlash maqsadida mazkur jamg'armalardan 1,5 trillion so'mga yaqin yordam ko'rsatildi.

Shuningdek, "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida nogironligi bo'lgan 1038 yosh zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillar bo'yicha o'quv kurslarida bepul o'qitildi. Yoshlar bandligini ta'minlash, oliy ta'lim bo'yicha shartnomalarini to'lab berish, xorijiy tillarni o'rganishiga amaliy ko'maklashish borasidagi ishlar izchil davom etmoqda.

Bundan tashqari, yoshlar yetakchilari tomonidan xonadon-xonadon xatlov ishleri orqali xorijdagi 268 ming yoshning balansi shakllantirilib, ular bilan doimiy muloqot o'rnatilgani diqqatga loyiq. O'tgan davr mobaynida migratsiyadagi 328 ming yosh yurtga qaytarilib, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlandi, xorijdagi 89 ming yoshning oilalariga moddiy, huquqiy va ijtimoiy yordamlar ko'rsatildi.

Bu kabi yutuqlar xalqimizning tahsini va xalqaro hamjamiyatning e'tirofini qozonmoqda. Xususan, BMT tomonidan "Yoshlar strategiyasi — 2030" loyihasini namunaviy tarzda amalga oshirish bo'yicha 10 ta mamlakatdan biri sifatida aynan O'zbekiston tanlab olingani har birimizga faxr bag'ishlaydi.

Yana ikkita muhim e'tirof: birinchidan, 2022-yilda Buxoro shahri Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, ikkinchidan, 2024-yilda Toshkent shahri MDH mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e'lon qilindi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni kamol toptirish masalasi jamiyatimiz va davlatimizning doimiy e'tibor markazida. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqbol albatta yorug' bo'ladi".

Yangicha yondashuvlar

Majburiy mehnatmi yoki IQTISODIY RIVOJLANISH?

O'ZBEKISTON ENG TO'G'RI YECHIMNI TANLADI



Den PATERSON, Jizzax viloyatidagi "Silverleaf Cotton Tracing" qo'shma korxonasi va paxta-to'qimachilik klasteri direktori

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston avvaldan dunyodagi yirik paxta yetishtiruvchilardan biri bo'lib kelgan, hozir ham shunday. Ammo endi mamlakat paxta xomashyosini sotuvchi emas, balki uni to'liq qayta ishlab, tayyor mahsulot holida eksport qilayotgan yetakchi davlatlardan biri. "Made in Uzbekistan" brendi ostidagi tayyor to'qimachilik mahsulotlari jahonning ko'plab davlatlariga kirib borib, hatto Yevropa bozorlarida o'z o'rnini egallamoqda. Ayniqsa, 2022-yilda o'zbek paxtasiga boykotning bekor qilinishi milliy to'qimachilik sanoatida yangi davrni boshlab berdi va bu tarmoqqa jahonning mashhur brendlari katta qiziqish bildirib boshladi. Ya'ni mazkur yo'nalish xorijlik ishbiarmon va investorlar uchun ham mamlakatdagi istiqbolli bizneslardan biriga aylandi.

Mazkur tarmoqdagi yutuqlarning eng katta omillaridan biri ilg'or ilm-fan va innovatsion texnologiyalarning faol jalb etilayotgani bilan bog'liq. O'zbekistonning avvalgi qishloq

2022-yilda o'zbek paxtasiga boykotning bekor qilinishi milliy to'qimachilik sanoatida yangi davrni boshlab berdi va bu tarmoqqa jahonning mashhur brendlari katta qiziqish bildirib boshladi. Ya'ni mazkur yo'nalish xorijlik ishbiarmon va investorlar uchun ham mamlakatdagi istiqbolli bizneslardan biriga aylandi.

xo'jaligini hozirgisi bilan taqqoslab bo'lmaydi. Biz ko'rgan eskicha ishlab tizimidan asar ham qolmagan. Hozir soha tubdan yangilanib, xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritayapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu boradagi faol harakatlar orqali qishloq xo'jaligida yuqori hosil olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorda mahsulotlar tannaxirini arzonlashtirish, eksport hajmini oshirish bilan bir qatorda inson huquqlarini kafolatlash maqsadlarini ilgari surayapti. Kompaniyamiz ham ana shu maqsadlar tarafdori. Biz sohada yangicha texnologiyalarni joriy etish orqali O'zbekistonni AQSHning yetakchi to'qimachilik mahsulotlari yetkazib beruvchilari qatoriga qo'shishga intilamiz. Qolaversa, sohada ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy tajribalar olib borish, tabiiy resurslar tejakorligini ta'minlashga qaratilgan qator loyihalarni amalga oshirib kelyapmiz.

Ana shunday yangi ishlanmalarimizdan biri "Digital Track and Trace" (DATT) noyob texnologiyasi bo'lib, u paxta yetishtirish jarayonida inson huquqlari buzilishining har qanday shakliga yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi. Ya'ni paxta yetishtirish jarayoni to'liq zamonaviy texnologiyalar yordamida boshqarilib, kuzatib



boriladi. Buning uchun dunyodagi yetakchi qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqaruvchi "John Deer" kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab. Ular bizga "Silverleaf Cotton Tracing" qo'shma korxonasi mahsulotlari sifatini raqamli nazorat qiluvchi jahondagi ilk tizimni taqdim etdi. Bu texnologiya paxta yetishtirishdagi eng katta muammo — majburiy mehnatni to'liq bartaraf etib, shaffof ta'minot zanjirini yaratish imkonini beradi.

Gap shundaki, majburiy mehnat masalasi haligacha tarixda qolgan emas. 2023-yil holatiga ko'ra, jahondagi paxtaning qariyb 70 foizi hamon qo'l bilan yig'ib olingan va bu majburiy mehnat hamda inson huquqlari buzilishi bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston majburiy va bolalar mehnatini yo'q qilishga qat'iy kirishgan 2017-yildan boshlab o'ziga olgan majburiyatni bajarishda jiddiy faollik ko'rsatmoqda. Chunki bu jahon bozoriga chiqishning asosiy talablaridan biri edi. Xorijning aksariyat kiyim brendlari hamkorlikda, avvalo, mana shu jihatga e'tibor qaratadi. Demak, AQSH va Yevropa davlatlari bozori bilan ishlaydigan "Silverleaf" qo'shma korxonamiz uchun ham ana shu jihati kafolatlash muhim. Biz joriy etayotgan yangi "Digital Track and Trace" texnologiyasi shu masalaga yechim sifatida yaratildi.

Raqamli kuzatuv tizimi dunyodagi birinchi "daladan — modaga" mexanizmini taklif etadi.

Bunda paxtani to'g'ridan to'g'ri ta'minot zanjiri bo'ylab dala maydonidan to yakuniy mahsulot tayyor bo'lguncha kuzatish mumkin. U har qadamda shaffoflikni kafolatlaydi. Paxtaning har bir partiyasi o'z raqamli pasportiga ega bo'lib, ehtiyotkorlik bilan muhrlanadi va ishlab chiqarish jarayoni xirmondan tortib, yigiruv, pardozlash fabrikalarigacha davom etib, yangilanib boraveradi. Jarayonda ma'lumotlar bazasi chiqariladi. Bu esa brendlari hamda ishlab chiqaruvchilarga yig'imdan keyin sifatli mahsulot aralashtirilmaganini tekshirish imkonini beradi. Har bir partiya uchun yaratilgan geofazoviy izlar orqali esa paxta qayerda va qanday yig'ilganigacha ko'rish imkonini mavjud.

Texnologiyani qo'llash bo'yicha 2022-2023-yillarda AQSH, Avstraliya va O'zbekistonning Jizzax viloyatida tadqiqot sinovlarini yakunladik. Joriy yilgi paxta yig'imida uni to'liq amaliyotga joriy etamiz. Buning uchun korxonada 45 ta "John Deer" kombayni shay holatga keltirilgan. Qolaversa, shu yildan boshlab nizolarsiz paxta reyestrini yaratamiz. Kelgusida yangi texnologiyani boshqa mamlakatlarda ham joriy etishni maqsad qilganmiz.

Zamonaviy tizim, eng avvalo, inson huquqlarini kafolatlashni nazarda tutadi. Paxta terimini majburiy mehnatga yo'l qo'ymasdan, qonunbuzarliklarisiz o'tkazishni ta'minlash bo'yicha brendga ham, mijozlarga ham kafolat beradi. Zamonaviy texnikada yig'ilgan paxta qo'l mehnatidan ko'ra tezroq, sifatliroq bo'lishi bilan manfaatlidir.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligini ilg'or texnologiyalarisiz rivojlantirish qiyin. Tejamkorlikni ta'minlash uchun bu juda zarur. Masalan, O'zbekiston sharoitida sunning eng katta sarfi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi. Agar suv tanqisligi ortib borayotgan hozirgi sharoitda eski texnika qanchalik katta hajmda suv yo'qotishlarga olib kelishini hisob-kitob qilsak, yangilarning samaradorligi yaqqolroq ko'rinadi. Shu bois, bu masalaga jiddiy e'tibor berilyapti.

Kompaniyamiz O'zbekistonda ish boshlagan

ilk yillarda tuproq bilan bog'liq muammolarga duch kelganmiz. Ya'ni yillar davomida paxta ekilib, yerdan noto'g'ri foydalanilgani hisobiga tuproq sifat va unumdorligini yo'qotgan edi. Muammoni yechish maqsadida AQSHdan eng zamonaviy, maxsus texnika vositalarini olib keldik. Ular orasida suv tejovchi "Pulsar Irrigation" tizimi ham bor edi. Mahalliy mutaxassislarimiz hisob-kitoblariga ko'ra, mazkur texnologiya suv resurslarini an'anaviy usullarga nisbatan 40 foiz tejaydi. Suv yo'qotishlarini minimallashtirish va tizim boshqaruvi asosida suvni kerakli joyga tezroq yetkazib berish kabi boshqa ko'plab afzalliklarga ega.

Umuman, korxonamiz O'zbekiston qishloq xo'jaligi imkoniyatlaridan maksimal foydalanib, sohaga yangicha texnologiyalarni joriy etib kelmog'da. Mazkur ilg'or texnika va texnologiyalar klasterda ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, mehnat xarajatlarini qisqartirish, ishchi kuchi yetishmasligi bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga imkon beradi.

Katta loyihalarni amalga oshirish bilan mamlakat iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi sohasi rivojiga hissa qo'shayotganimizdan mamnunmiz. 2022-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlanganim esa men uchun kutilmagan voqe'lik bo'ldi. Bu o'zaro hamkorligimizga bo'lgan hurmat va ishonch belgisi deb bilaman.

Zamondosh

"Chiqindidan boyigan" bir yigitni bilaman. Men ishlayotgan maktabga ham ko'p kelib, "Opajon, unday qilaylik, bunday qilaylik!" deb rejaralarini aytganida ikkilanib qolardim. Ochig'ini, g'ayrioddiy ishlar boshlab yuradigan bu yigitga hayron ham bo'lganman. Ammo "Buning miyasida bir g'oya bor", deb yurardim. Keyin bilsam, uning yosh boshida bir emas, ko'p g'oyalar bor ekan.

Rashit 2021-yil fevralda yana maktabga kelib, "Opa, yuring, bizning poligonni bir ko'ring. Siz Ekologiya partiyasidansiz-ku axir", degach, rad etolmadim. Boshlagan ishiga o'zim ham qiziqib qolgandim. Yonimga yoshlar yetakchisini oldim-da, poligonga bordik. Qavat-qavat niqob taqib olganicha chiqindi poligoniga "sayohat"ni boshladik.

Mezbon ish jarayoni bilan tanishtirar ekan, muammolarni sanay ketdi: "Qoraqalpog'iston bo'yicha kuniga o'nlab reys chiqindi chiqadi. Shundan bir reysingini utilitatsiya qilinadi. Agar chiqindining hammasi qayta ishlanganida edi, 90 foizgacha foyda olinardi. Chiqindiga ikkinchi "hayot" berish kerak, ya'ni qayta ishlov kerak".

Uning gaplarida jon bor edi. Chiqindilar atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazadi. Ularni yo'q qilish ham katta xarajat. Ammo qayta ishlov yo'lga qo'yilsa, zarar kamayib, aksincha, qo'shimcha daromad olinadi. Shularni o'ylab, "Ekologiya qo'mitasiga xat yozmadingizmi, ko'mak so'ramadingizmi?" deb qiziqsinib savol berdim.

Eh, opajonim-ey, men kimlarga xat yozmadingizmi? Birga ishlaylik deb yuribman-ku, — xo'rsindi Rashit. — Yozaman, javob bo'lmaydi. Mayli, nima bo'lganda ham biz o'z ishimizni qilaveramiz. Asosiy maqsadimiz chiqindini yo'q qilish emas, balki undan maqsadli foydalanish. Mana, mehnat jamoamizni olaylik. Ey yigitlar, yaqinroq keling! Bu yigitlar Nukus tumani

"Berdaq" ovul fuqarolar yig'inidan. Asosiy vazifasi — sellofan xaltachalarni tozalab, navlarga ajratish. Bo'lgan yumushi shu!

Rashit savol nazari bilan menga qaradi. Javobini yana o'zi berdi: "Agar bizga chiqindi sellofanni tozalab topshirishsa, kilosini to'rt ming so'mdan, tozalamay topshirsa, ming so'mdan olamiz. Mana, yigitlar sellofanni tozalab, ikkinchi sexga topshiradi. Bu yigitlar o'zi aytin, bir kunga bo'lsin, yumushni qo'yib ketadiganlar bormi?".

CHIQUINDIDAN SUYAK UNI, KIGIZ VA KATTA SEX TADBIRKOR QANDAY DAROMAD TOPYAPTI?



Yigitlar darrov javob berdi. Ulardan biri — Yesetay Baygubulov boshqa ovuldan o'z mashinasida qatnashi, kuniga 150 ming so'mdan haq olishi, suv yerdan topayotgan daromadi bilan oila tebratib, farzandlarini o'qitayotganini mamnun bo'lib aytdi. Baurjan Jametov ham shu ish orqasidan mashina olibdi.

Yigitlar o'zi haqida ayta ketdi. Bu yerda tartib-intizom qattiq ekan. Ishchilar uchun juda yaxshi sharoit yaratilgan. Uch mahal bepul ovqat beriladi. Dam olish xonalari ko'zdan kechirdik: toza va shinam bo'lmalar. Oshxona muntazam ishlab turibdi.

Chiqindi poligonining qayeriga bormaylik, qizg'in ish jarayoniga duch keldik. Chiqindilarni qayta ishlaydigan

sexlar ko'p edi. Bir sex xomashyoni yuvib bersa, ikkinchisi undan tayyor mahsulot oladi. Sellofan, yelim idishlardan turli o'lchovda quvurlar ishlab chiqarilaypti. Quvurlarning o'lchami turlicha: o'n besh, yigirma, o'tiz santimetrlik... Boshlang'ich narxi ancha yildan beri o'zgarman: har kilosi 13 ming so'mdan. "Asosiy xaridorlar — mang'itliklar. Odatda ular bizning bozorga olib keladi, olib ketmaydi. Biroq menden 13 ming so'mdan xarid qilib, Nukus bozorida 26 ming so'mdan sotayotganlarini ko'rdim", deydi Rashit.

Navbati bilan gulqog'oz sexiga o'tdik. Bu yerda tonna-tonna tekstil chiqindisi presslanmoqda. "Buncha tog'-tog' pressni nima

qilishar ekan-a?" deya o'ylab ulgurmasimdan javobini tayin bo'ldi.

— Bu tekstil chiqindilari O'zbekistonning hamma viloyatlaridan keladi, kilosini 4500-5000 so'mdan olamiz, — dedi tadbirkor. — Ularni yuvib, rangiga qarab saralab, navlab, qayta ishlab, gulqog'oz tayyorlaymiz. Rangiga qarab saralangan uchun ishchilarga kilosiga ming so'mdan haq beramiz. Hisoblab ko'ring: kuniga 200 kilo chiqindi saralagan uchun har bir ishchi 200 ming so'm haq oladi. Nukus bozorida biz ishlab chiqarayotgan gulqog'oz 60 ming, Turkiyaniki esa 120 ming so'mdan sotiladi. Turkiya gulqog'ozini bozordan siqib chiqardim, desam ham bo'laveradi. Sababi, bizning mahsulot Turkiyanikidan arzon va sifatli.

Qalovini topsang, qor yonadi...

Ayni paytda Rashit Kartboyev "Mustanab Hilol" firmasini boshqaradi. U keyingi yillarda tekstil presslaridan qo'shimcha sex qurilishini ham boshlabdi. Pressdan ham qurilish qilsa bo'lar ekanmi, desiz? Albatta, bo'lar ekan. Axir hozirgi zamonaviy tadbirkorlar har qanday noodiyatni ishini uddalayapti. Pressdan bino qurish ham shunday. Orasiga temir, sementdan tirgovich qo'yilib, suvab tashlanar ekan. Rashit shunday pressdan yaqinda qog'ozni qayta ishlov sexini qurib bitirib, ishga tushirmoqchi.

Tadbirkorning sexida hozir qayta ishlangan chiqindidan turli mahsulotlar ishlab chiqarilaypti. Chiqindiga chiqarilgan jundan

kigiz tayyorlanib, kurtka, paltolarga tayyor astar tikilyapti. Mahsulot boshqa kiyim asarlaridan farqli ravishda tabiiy jundan tayyorlanayotgani bois, bozorda ancha xaridor. Oshlangan xomashyodan tayyorlanayotgan telpak va po'stinlarning ham bozori chaqqon.

Suyakni qayta ishlab, biror iste'mol mahsulotiga aylantirish imkonligi odamni hayratga soladi. Tadbirkorning sexida suyakdan un shaklida ozuqa ishlab chiqarilaypti. Maydalangan 30 tonna suyak uni sotishga tayyor turibdi. Ularning puli allaqachon to'langan. Uni fermerlar qoramol hamda tovuqqa qo'shimcha ozuqa sifatida oladi. Chunki suyak ko'pchilik o'ylaganidek qayta ishlab bo'lmaydigan chiqindi emas, balki turgan-bitgani kalsiyga boy yemish. Tovuqlarga beriladigan 1 kilo suyak uni 25 ming so'mdan sotilyapti. Qoramolga beriladigan esa 50 ming so'mdan.

Chiqindi poligoniga yuzlab tuyaqush, hisobi yo'q quyon, tovuqlar bolalarini ergashtirib yuribdi. Bu yer go'yo tinib-tinchimaydigan Rashitning tajriba maydoniga o'xshaydi. Miyasida yuz xil reja va maqsad qaynab turgan shijoatli tadbirkor bugun ellik kishini ish bilan ta'minlab, oilasi gullab-yashnashiga hissa qo'shmaypti. Ishchilarning aksariyati ancha yillardan beri Rashit bilan birga ishlab kelmog'da. Ularni ko'rib, "Barakalla, yigitlar!" deyman, g'ayratiga, mehnatkashligiga qoyil qolaman.

Aytgancha, Rashit Kartboyevning tug'ishganlari ham tadbirkorlardan. Birisi metall-tomda, yana biri qog'ozni qayta ishlovda nasibini terib yuribdi. Ular ham omadi kulgan, ishi rivojlangan ishbiarmonlar. Rashitning tumush o'trog'i Gulchehra esa chiqindi poligonida hisob-kitobni yuritadi. Yigitning bunday ishlarga tobi yo'q. U olib keladi, o'ylaydi, ishga tushiradi, rasionalizator — tadbirkor. Ikki birligida mehnat qilib, bir qiz, ikki o'g'lini voyaga yetkazaypti.

Rashitga nafaqat yaxshi tadbirkor, namunali oila boshlig'i, balki sahovatpesha inson sifatida ham havas qiladiganlar ko'p. U imkon qadar kam ta'minlangan oilalarga yordam qilib keladi. "Temir daftar"da ro'yxatda turganlarni ishga olib, doimiy daromad bilan ta'minlaganining o'zi katta yordam. Rashitning loyihalari ham tabiat, ham jamiyat uchun foydali. Bunday ishlarni hamma joyda ommalashtirish, yo'lga qo'yish kerak, degan o'y xayolimda aylanaveradi.

Oralxan SAPAROVA, deputat

Dolzarb mavzu

SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM XIZMATI:

INSON SOG'LIK'I XAVF OSTIDA QOLGANDA

Boshlanishi 1-betda

Maqolamiz sog'liqni saqlash tizimidagi shoshilinch tibbiy yordam davlat xizmatining o'rni, ahamiyati, ilmiy salohiyati va bugungi holati borasida. Qolaversa, mazkur bo'g'in haqidagi tushuncha va tasavvurimizni kengaytirish bilan birga tibbiy savdoningimizni qaysidir ma'noda oshiradi ham, deb ayta olamiz.

koronar arteriyalarning o'tkazuvchanligini tiklash va stentlash, zarur holatlarda esa o'ta murakkab kardiokirurgik amaliyot bo'lgan aorto-koronar shuntlash operatsiyasi ham o'tkaziladi. Ushbu yuqori texnologik yondashuv natijasida nafaqat yurak og'rig'i vaqtincha bartaraf qilinadi, balki bu xurujning miokard infarktiga aylanishiga yo'l qo'yilmaydi. Infarkt oqibatida yuzaga keladigan og'ir asoratlari,



— Shoshilinch tibbiy yordam xodimlari kecha-yu kunduz, har qanday sharoitda insonlar hayotini qutqarib qolishga shoshadi. Boshqa soha shifokor-mutaxassislaridan farqli o'laroq, ular har qanday vaziyatda zudlik bilan va aynan shu holat uchun yagona to'g'ri qaror

qabul qila oladigan mutaxassis bo'lishi talab etiladi, — deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi direktori, professor Doniyor Alimov.

Imkoniyat va islohotlar

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (RSHTYIM) ushbu tizimdagi bosh muassasidir. Uning asosiy maqsadi va vazifasi aholiga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologik shoshilinch tibbiy yordamni bepul tashkil etish va ko'rsatishdan iborat.

Markazning boshqa stasionarlardan farqi shundaki, bu yerga kelgan yoki keltirilgan bemorlar saralanib, ular hayotiga xavf tug'diruvchi kasallik yoki shikastlanish turiga qarab ixtisoslashtirilgan kardiologik, xirurgik, travmatologik, neyroxirurgik, reanimatsion va boshqa yo'nalishdagi shoshilinch tibbiy yordamning to'liq sikli zamonaviy davolash-diagnostika standartlari asosida yuqori texnologiyalarni qo'llagan tarzda amalga oshiriladi. Masalan, yurak xuruj bilan kelgan bemorga oddiy shifoxonalardagi kabi faqat tegishli dori-darmon qo'llash bilan chegaralanib qolmay, eng yetakchi mamlakatlar kardiologlari tomonidan qabul qilingan klinik tavsiyalarga to'liq mos ravishda shoshilinch koronarografiya,

shu jumladan, o'lim holatining oldi olinadi. Ya'ni yurak xuruj vaqtida tezkor qo'llangan zamonaviy intervension kardiologiya usullari bemor hayotini saqlab qolishi bilan birga yurak faoliyatini to'liq tiklab, bemorni qisqa muddatda



to'laqonli hayot tarziga qaytaradi.

Tinchlik davrida hamda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda aholiga ixtisoslashtirilgan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun markazda 29 yo'nalishdagi klinik bo'lim faoliyat yuritadi. Ularda 760 ta (bundan tashqari, 80 ta reanimatsion) bemor o'rni mavjud. Jumladan, markazning yangi tashkil qilingan birgina kardiokirurgiya, transplantologiya va neyro-qon tomir xirurgiyasi majmuasida yiliga 1500 dan ziyod o'ta murakkab kardiokirurgik,

neyroxirurgik, angioxirurgik, endovideoxirurgik operatsiya hamda a'zolami ko'chirib o'tkazish amaliyoti eng zamonaviy standartlar asosida bajarilmoqda.

Shu o'rinda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining "ilmiy" ekaniga qisqacha izoh bersak. Ilmiy degan nisbat berilishi sababi RSHTYIM katta ilmiy tadqiqot imkoniyatiga ega. Markazda 10 professor, 32 fan doktori va 169 fan nomzodi/falsafa doktori faoliyat yuritmoqda. Muassasa 16 mutaxassislik bo'yicha klinik ordinatorlar o'qitish (shu jumladan, ingliz tilida ham) bazasidir. Bu dargohda mamlakatimizning barcha hududlari uchun yiliga 200 dan ziyod mutaxassis tayyorlanadi. Qolaversa, har yili markazda tashkil qilingan qisqa va o'rta muddatli o'quv kurslarida 1200 dan ortiq shifokor-mutaxassis malaka oshirilmog'ida.

Markazning ilmiy hamkorlik va kadrlar tayyorlash yo'nalishidagi xalqaro aloqalari ham izchil rivojlanmoqda. Bu hamkorlik doirasida yiliga 100 ga yaqin mutaxassis, eng avvalo, yosh shifokorlar 15 mamlakatning 22 ta eng nufuzli tibbiyot markazi va universitet klinikalarida malaka oshirib qaytmog'ida. Doimiy ravishda ikki tomonlama ilmiy va amaliy safarlar uyushtirilmoqda.

Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda jami 13 filiali faoliyat yuritmoqda. Bu muassasalarda hayotga xavf

tug'diruvchi klinik holatlarda bemorlarga yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Shuningdek, 104 tumanda markazning subfiliallari — tuman/shahar tibbiyot birlashmalari shoshilinch qabul bo'limlari mavjud. Bu bemorlarga tez va malakali yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Ixtisoslashtirilgan shoshilinch tibbiy yordamni olis hududlarda yashovchi aholiga yanada yaqinlashtirish va qamrovini kengaytirish maqsadida Prezidentimizning "Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 2021-2022-yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida 35 ta yangi tashkiliy tuzilma — tumanlararo qo'shma shikastlanishlar va o'tkir yurak-qon tomir kasalliklari markazlari tashkil qilindi. Ular bir-biriga qo'shni 3-4 ta tuman aholisini qamrab olib, yil sayin barcha diagnostika va davolash jihozlari, shuningdek, malakali shifokorlar bilan ta'minlanayapti. Natijada qattiq jarohatlangan yoki o'tkir yurak-qon tomir kasalligi xurujiga uchragan va ixtisoslashtirilgan yordamga muhtoj bemorlarni yuqori texnologik yordam ko'rsatadigan muassasaga olib borish radiusi o'rta 40-70 kilometr dan 15-25 kilometr gacha qisqardi. Bemorlarga o'z vaqtida to'laqonli tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati sezilarli kengaydi. Tumanlararo markazlar tashkil

qilinishi va ixtisoslashtirilgan shoshilinch tibbiy yordamni hududlarga yaqinlashtirish natijasida tuman miqosida shoshilinch tibbiy yordam holati bo'yicha o'lim ko'rsatkichi o'rta 12,8 foizdan 7,6 foizgacha kamaydi. Shuningdek, bemorlarni tuman tibbiyot birlashmalaridan viloyat markaziga olib borish zarurati 8,1 foizdan 1,5 foizgacha qisqardi.

Ilmiy va amaliy salohiyat

RSHTYIMda bugun 2300 dan ziyod xodim, jumladan, 460 ga yaqin shifokor, 1080 hamshira, 520 kichik tibbiy xodim ishlaydi. Ularning 25 nafari fan doktori, 72 nafari fan nomzodidir.

Hozir qator ilmiy grantlar (jumladan, xorijiy hamkorlar ishtirokida) amalga oshirilmoqda. Bu yerda magistratura va klinik ordinatorda ta'lim olayotgan mutaxassislar amaliyot o'tash bilan birga faol ilmiy izlanishlarga ham jalb qilinmoqda. Muassasa qoshida doktorlik dissertatsiyalari himoyasi bo'yicha ilmiy kengash faoliyat yuritadi. 2018-yildan buyon shoshilinch tibbiyot mutaxassisligi bo'yicha 50 dan ortiq dissertatsiya yoqlandi va bu ko'rsatkich yil sayin ortib boryapti.

Ayni paytda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash tizimi asosida xodimlar Rossiya, Turkiya, AQSH, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Litva kabi ilg'or xorijiy mamlakatlar klinikalarida malaka oshirib kelyapti.

Ma'lumotlarga ko'ra, shoshilinch tibbiy yordam xizmatining stasionar va tez tibbiy yordam xizmati tuzimida bir yilda 18 million 726 ming kishi davolanadi. Birgina RSHTYIMni olsak, har yili 273 mingdan ortiq bemorga tibbiy yordam ko'rsatiladi, 14 mingdan ziyod murakkab jarrohlik amaliyoti bajariladi.

Boshqa kasblarni kamsitgan holda sog'liqni saqlash tizimining o'ta murakkab va mas'uliyatli ekanini qayd etish joiz. Ideal inson yoki mutaxassis bo'lmaganidek, muammo va kamchiliksiz tashkilot, muassasa ham topilmasa kerak. Aholi soni o'sib borayotgani, fan-texnika rivojlangani sari shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatish ko'lamiga talab va mas'uliyat ham ortib bormog'ida.

— Shoshilinch tibbiy yordam xodimlari kecha-yu kunduz, har qanday sharoitda insonlar hayotini qutqarib qolishga shoshadi. Boshqa soha shifokor-mutaxassislaridan farqli o'laroq, ular har qanday vaziyatda zudlik bilan va aynan shu holat uchun yagona to'g'ri qaror qabul qila oladigan mutaxassis bo'lishi talab etiladi, — deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi direktori, professor Doniyor Alimov. — Bunda shifokordan bir vaqtning o'zida chuqur bilim, malaka, tezkorlik, mas'uliyat hamda fidoyilik talab qilinadi. Chunki hayoti va salomatligi xavf ostida qolgan insonni saqlab qolish uchun atigi bir necha daqiqada, hatto lahazalar katta ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari "Tibbiyot tizimidagi islohotlarimizni odamlar, birinchi navbatda, tez tibbiy va shoshilinch yordamda bo'lgan o'zgarishlarni ko'rganidagina his qiladi. Inson sog'lig'i va uning hayotini saqlab qolishda "oltin soat" oraliqida birinchi yordam ko'rsatuvchi bo'g'in, albatta, tez tibbiy va shoshilinch yordam hisoblanadi", deya ta'kidlagan edi. Ha, bu boradagi dolzarb vazifalarni o'z vaqtida va sifatli ijro etish orqali tibbiyot sohasini xalqqa yanada yaqinlashtirish, inson qadriini ulug'lash uchun yana bir dadil qadam tashlandi. Zero, inson qadri, farovonligi, umuman, mazmunli umrimiz davomiylikiga eng ishonchli kafolat xalqimiz salomatligidir.

Rustam BOYTO'RA,
jurnalist

Ta'lim

Joriy yilning 18-iyul kuni davlatimiz rahbarining "Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, Surxondaryo viloyatidagi Termiz muhandislik-texnologiya hamda Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish institutlarini birlashtirish orqali ular negizida Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universiteti faoliyati yo'lga qo'yilmog'ida.

Avvallari Surxondaryoda birgina oliy o'quv dargohi — Termiz davlat universiteti bo'lardi. 2017-yildan hozirga qadar vohadagi oliygozlar soni oltitaga ko'paydi. Xususan, Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali tashkil etilgandi.

Keyingi yillarda Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali negizida alohida maqomga ega Termiz muhandislik-texnologiya

institutini faoliyati yo'lga qo'yilib, malakali kadrlar yetishtirib chiqarilayotgan edi.

Shuningdek, keyingi yillarning mahsuli sifatida voha markazida Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filiali tashkil etildi. Prezidentimizning 2021-yil 28-oktabrdagi qarori bilan uning mustaqil maqomga ega Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti ochildi. Endi ikkita institut birlashib, Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universitetiga aylandi.

Yangi yirik ta'lim muassasasi oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimi uyg'unligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarining mavjud resurslaridan samarali foydalanish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash orqali ishlab chiqarish, muhandislik, qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

So'nggi yetti yilda mamlakatimizda sanoat korxonalarini soni qariyb 2,5 barobar ortib, 45 mingdan 100 mingtaga ko'paydi. Tabiiyki, bu sanoat korxonalarida yaratilayotgan yangi ish o'rinlari zamonaviy texnologik jarayonlarni boshqarishga qodir yuqori malakali muhandislar tayyorlash zarurati yuzaga keltirayotgan edi.

Termiz muhandislik-texnologiya hamda Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish institutlarining birlashishi samarali boshqaruv tizimini joriy etish, takrorlanuvchi fakultet va kafedralarni qisqartirish, ayrim shtat birliklarini maqbullashtirish imkonini yaratmoqda.

Universitetda "tarmoq — korxonalar — oliygoz" zanjiri yanada mustahkamlanadi.

SURXONDARYODA IKKINCHI UNIVERSITET OCHILMOQDA



Shuningdek, 2024/2025-o'quv yilidan boshlab yangi universitetda ilg'or muhandislik maktabi ham tashkil etiladi.

— Yangi universitetda ta'lim berishda zamonaviy texnologiyalar bilan bemalol ishlay oladigan, yuqori salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasi ustuvor bo'ladi, — deydi Termiz muhandislik-texnologiya instituti mexanika fakulteti dekani Bekzod Primqulov. — Shu bilan birga, oliygozga qabul jarayonlarida eng yuqori ball to'plagan abituriyentlar qabul

qilinadi. Ta'lim jarayonlari maxsus dasturlardan foydalangan holda olib boriladi. Kelgusida oliy ta'lim yuqori darajada rivojlangan davlatlardan professor-o'qituvchilarni ham taklif etish ko'zda tutilgan.

Qarorga ko'ra, universitetning boshqaruv va o'qituvchilik lavozimlariga xorijiy tajribaga ega, ilmiy va amaliy malakasi yuqori mutaxassislarni jalb etish, ularning ish samaradorligini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini yo'lga qo'yish ham belgilangan.

Bundan tashqari, universitet huzurida texnika va qishloq xo'jaligi ixtisosliklari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ixtisoslashgan kengashlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.


— 2025-yildan boshlab oliygozning professor-o'qituvchilarini xorijda tajriba almashishga jo'natish maqsad qilingan, — deydi Termiz muhandislik-texnologiya instituti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri To'liq Xolijorov. — Yuqori salohiyatli o'qituvchilarga ustamalar belgilanadi. 2024-2025-yildan ikki oliygozni bitirishga chog'lanayotgan yoshlarga esa Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universiteti diplomlari beriladi.

Yangi universitetga qator huquqlar berilmog'ida. Masalan, u xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning amaldagi reytingida birinchi 300 talik ro'yxatga kirgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturi asosida o'z ta'lim dasturlarini shakllantirish, mavjud yo'nalishlar bo'yicha innovatsion xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tashkil etish va professor-o'qituvchilarni o'quv-metodik, ilmiy tadqiqot ishleri va talabalarining erishgan yutuqlari bo'yicha rag'batlantirib borish shular jumlasidan.

— Muhim yangilik sifatida baholash kerak bo'lgan jihatlardan biri — universitetda ixtisoslashgan ilmiy kengashlar faoliyati yo'lga qo'yilishi. Tadqiqotchilar endi boshqa oliygozlarda ilmiy ishlarini himoya qilmaydi. Voha markazining o'zida ilmiy darajalar oladi, — deydi Termiz muhandislik-texnologiya instituti kafedra mudiri Otabek Ochilidiev. — Shu bilan birga, bu hududda yo'nalishlar bo'yicha o'ziga xos maktablar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universiteti ishlab chiqarish va ta'limning faol integratsiyasini ta'minlovchi, vohadagi iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakali muhandis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan tayanchoq oliy ta'lim muassasasiga aylantirishga shubha yo'q.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Ajiniyoz tavalludining 200 yilligiga

Qalpog'i qozonday ellarim bordir

"Qirmizi", "Go'zallar" kabi she'rlarida lirik qahramonning ishqiy kechinmalari, quvonch va iztiroblari ifodalansa, "Ellarim bordir", "Ko'rindi", "Ko'nglim mening", "Qaydasan?", "Armonli dunyo" she'rlarida vatan sog'inchi, ona zaminning qadriga yetish g'oyalari

ko'rgan-kechirgan voqealari asosida bitilgan. Davrning dolzarb muammolari nisbatan aytgan shoir nazaridan chetda qolmagan. Uning she'rlari tarbiyaviy ahamiyatga molik yuksak ijod namunalari. Shoir o'z zamonidagi ijtimoiy illatlarga qarshi kurashgan. She'riyat

oddiy odamlarga past nazar bilan qarab, ularni kamsitishga uringan shaxslarga nisbatan aytgan achchiq so'zlari ham bor:

U odamdan o'tlab yurgan mol yaxshi. Aytgan so'zin ma'nosini bilmasa, U odamdan tilsiz o'sgan lol yaxshi.

Ajiniyoz lirikasining boshqa shoirlarnikidan farq qiladigan bir jihati — u Sharq mumtoz adabiyotini mukammal o'rgandi. Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil oldi. Madrasada Sharq mumtoz adabiyotining daho so'z san'atkorlari asarlari darslik, o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan. Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Bedil kabi shoirlarning ijod sirlari, shoirlik mahorati haqida taliblariga nazariy ma'lumotlar berilgan.



ustuvor. She'rlarining birida shoir bunday deydi:

Gina qilib yurtini tashlab ketgandan, Qadring bilimnimga yerda xizmat etgandan, Yot ellarda musofirlik chekkandan, Urib-so'kib xo'rslama ham el yaxshi. Bu bitiklar barcha zamon uchun birdek muhim. Zero, vatanparvarlik, yurtsevarlik hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Ajiniyoz lirikasida bunday pandnomalar bir turkumini tashkil etadi. "Kerak", "Ayriksa", "Kerakdir", "Yaxshi", "Bo'lmasa", "Ne bilsin", "Bo'lmas" radifli she'rlar shoirning hayotiy tajribalari,

tali bilan ularni tanqid qilishdan qo'rmagan. Shu ma'noda, Ajiniyoz lirikasining muayyan qismi hajviy mazmundagi she'rlardan iborat. Shoir she'rlarida zamonga hamnafas so'zini aytgan. O'z davrining faol fuqarosi, ijodkori sifatida doimo xalq dardi, orzu-umidlari bilan yashadi, qalam tebratdi. "Bu dunyoning ko'rki — odam bolasi", deb ijod maydoniga chiqqan Ajiniyoz butun faoliyatini insonlar taqdirini o'ylash, unga xizmat qilishga bag'ishladi. Shoirning buyuk insonparvarligi mohiyati ham shunda, odam qadriini ulug'lashda. Oliy xilqat sanalmish insonni tahqirlashga moyil



Mumtoz she'riy shakllarda, aruz vaznida ijod qilishning qonun-qoidalarini o'rgatgan. Ajiniyoz uchun bu katta imkoniyat edi.

Shoirning keyinchalik aruz vaznida g'azal, muxammas kabi janrlarda go'zal she'rlar yozishida bu saboq qo'l keldi. "Ko'zlarim", "Ay alif", "Beri kel", "Chiqti jon", "Qiz Oraz", "Uyg'on" radifli muxammaslari shoir aynan madrasada olgan ta'limining amaliy natijalari, desak bo'ladi. Qoraqalpog' mumtoz adabiyotidan Sharq adabiyoti o'analari bilan ilk marotaba bog'langan shoir Ajiniyozdir.

Ajiniyozning yetuk, poetik mahorati chinikkan ijodkor bo'lib tanilishida Sherg'ozixon madrasasining ahamiyati katta. Shoir madrasa ta'limidan mamnunligini she'rlarida ham qayd etgan. Aruz vaznida muxammaslar, g'azallar va naziralar yozishning Ajiniyozdan boshlangani hozirgi qoraqalpog' adabiyotida davom etayotgan shoir o'analari bardavomligidan darak.

Ajiniyozning adabiy merosi juda salmoqli va rang-barang. Aslida, shoir ijodida adabiyotning boshqa janrlarida bitilgan asarlar ham o'z emas. Shoirning vatanparvarlik mavzusi qalamga olingan "Bo'zatov" realistik poemasi qoraqalpog' mumtoz adabiyoti poema janrining eng yaxshi namunasi. Qoraqalpog' adabiyotida aytishuv (dialog) janri Ajiniyoz ijodidan boshlangan. Shoirning qozoq qizi Mengesh bilan aytishuvi buning yaqqol misoli. Aytishuv xalqimiz orasida juda ommalashgan bo'lib, ko'pchilik uni yod biladi.

Ajiniyoz ko'p qirrali, serma'no va serqatlam ijodkor, adabiyotning bir emas, bir necha janrida qalam tebrata olish salohiyatiga ega shoir bo'lgan. Badiiy mahorat bobida ham betakror qalam sohibi edi. O'ziga xos ijodiy maktab yaratib, avlodlarga ibrat bo'lgudek ma'naviy xazina qoldirgan yorqin siymolardan biri.

Bugun Qoraqalpog'istonda shoirning muborak nomi abadiylashtirilgan. Shoir nomida ko'chalar, istirohat bog'lari bor. Nukus shahri qo'riq markazida unga muhtasham haykal o'rnatilgan. Shoir haqida roman va qissalar yozilib, filmlar suratga olingan. Qoraqalpog' teatrida birinchi marta "Ajiniyoz" operasi sahnalashtirildi.

Bulbulzabon shoir Ajiniyozning o'lmas merosi yosh avlod tarbiyasida o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. So'zimizni shoir qalamiga mansub quyidagi misralar bilan yakunlamoqchimiz:

So'rasang elmini, Qojban, bizlardan, Qalpog'i qozonday ellarim bordir. Xato chiqsa, kechirilinglar, so'zlardan, Xitoy, qo'ng'iro't o'tli ellarim bordir.

Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Madaniy hamkorlik "Azaldan qanotdosh bo'lib kelayotganimiz yaqqol sezildi"

Keyingi yillarda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekistonda qirg'iz tili va madaniyati, Qirg'izistonda esa o'zbek tili va madaniyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ikki davlat ziyolilari va ijodkorlari ishtirokida ma'rifiy tadbirlar ko'lami yanada kengaydi. Betakror yozuvchi Chingiz Aytmatovning 90 va 95 yillik yubileyini o'zbekistonliklar qirg'iz xalqi kabi ko'tarinki kayfiyatda nishonlagani ham buning yorqin dalili. Toshkent shahrida yozuvchining byusti o'rnatilgan edi.

O'zbek hamkasblarimiz bizni alohida tayyorgarlik bilan kutib olganidan xursandmiz, — dedi Qirg'iziston san'ati rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Saltanat Mambetmusaeva. — Dastlab ikki xalqning qo'shma konsert dasturiga tayyorgarlik ko'rdik. Hammasi ko'ngildagidek bo'ldi. Konsert kutganimizdan-dayaxshi o'tdi. O'zbek xalqi bilan bir o'ladek bo'lganimiz uchun birgalikda konsert berish, spektakllar qo'yish, kino yaratishdan baxtiyormiz. O'zbek ijodkorlari bilan suratga olgan filmlarimiz, tayyorlagan spektakllarimiz qirg'iz xalqiga hamisha manzur bo'lib kelgan. O'zbekiston milliy qo'shiqchilikni keng targ'ib etishga jiddiy e'tibor bermoqda. Baxshichilik, maqom bo'yicha o'tkazayotgan festivallaringiz yoshi ijodkorlarimizni ruhlantiryapti. Bu yil ham Zominda o'tgan maqom festivalida qatnashdik.

Milliy maqomchiligimizga qirg'iz elining hurmati baland ekani, Qirg'izistonda yoshlarga maqom san'atini o'rgatishga kirishilgani esa milliy g'unurimizni ziyoda qildi. O'zbek va qirg'izning adabiy hamkorligi kecha yo bugun boshlangani yo'q. Katta avlod vakillari bog'lab ketgan rishtalar bugun davlatlar o'rtasidagi do'stlik sabab yangi bosqichga ko'tarildi. Buni



madaniyat kunlaridagi do'stona munosabatlari ham isbotladi. Masalan, Adiblar ziyobonidagi muhtasham binoga qirg'iz ijodkorlari kirib kelar ekan, yozuvchi-shoirlarimiz ularni aka-ukalari

kabi quchoq ochib kutib oldi. "O'zbekiston va Qirg'iziston madaniy aloqalari: umumiy qadriyatlar, hamkorlik tarixi va istiqbollari" mavzusidagi davra suhbatii ikki elning fan, adabiyot va san'at sohasi vakillari bilan o'zgaracha o'tdi. Tadbir davomida adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurovga Xalqaro "Chingiz Aytmatov" akademiyasi faxriy akademigi guvohnomasi topshirildi. Yaqinda O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ham xuddi shunday guvohnomaga ega bo'lgan, qator o'zbek ijodkorlari xalqaro Issiqko'l forumining "Chingiz Aytmatov" medali bilan taqdirlangan edi. O'z navbatida, qirg'izistonlik o'zbek ijodkorlari Begjon Ahmedov va Avliyoxon Eshon, o'zbek adabiyoti targ'ibotiga katta hissa qo'shib kelayotgan adabiyotshunoslar Barno Is'hoqova va Xosiyat Bekmirzayeva, qirg'iz ijodkorlari va tarjimonlari Marqaboy Amatov va Nurlan Qalibekov, akademik Abdaldajon Aqmataliyev O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faxriy a'zosi hisoblanadi.

Qirg'izistondan kelgan ko'p sonli mehmonlar bilan mana shunday davra qurishning o'zi adabiy hamkorlikning eng chiroyli ko'rinishi. Aslida, buning tarixi uzun. Asrlar davomida yonna-yon yashagan o'zbek va qirg'iz baxshilari "Ey dunyo" yoki "Oqqan suv" kabi termalarni o'z dostonlarida to'qib aytgan. XX asrga kelib, xalqlarimiz orasida asarlarimiz tarjima qilina boshlandi. Natijada qirg'iz adabiyotidan ko'plab asarlar ona tilimizga o'girildi. "Manas" dostoni o'zbek tiliga 9 marta tarjima qilindi. Qirg'iz ijodkorlari ham bizning dostonlarimizni o'z tiliga o'girishni maqsad qilgan. Mana shu ishlarga hissa qo'shayotganimizga shukr, zero, adabiy hamkorlik adabiyotni yuqoriga olib chiqadi, — dedi O'zbekiston — Qirg'iziston do'stlik jamiyati raisi Zuhriddin Isomiddinov.

Qirg'iziston bilan kino va teatr sohasida ham do'stona aloqalar o'rnatganmiz. Hamkorlikni yanada mustahkamlash esa har ikki tomon uchun manfaatli bo'ladi. Masalan, o'zbek kinoijodkorlari qirg'iz xalqi tomonidan hamisha iliq kutib olinadi. Hamkorlikdagi filmlarimiz ularga juda manzur bo'lishini kinoijodkorlarimiz yaxshi biladi. XIV Toshkent xalqaro kinofestivalida Qirg'iziston Kinematografiya departamenti direktori Muqtila Bektenaliyev "Yaqinda O'zbekiston Kinematografiya agentligi hamda Qirg'iziston bilan hamkorlikda yangi filmlarni suratga olish bo'yicha kelishuvga erishdik. O'yaymanki, hamkorligimiz uzoq davom etadi", degan edi.

Haqiqatan, bu boradagi harakatlar muvaffaqiyatli bo'layotganini ko'ryapmiz. O'zbek aktyorlarini taklif qilayotgan qirg'iz rejissyorlari ijodkorlarimiz mahoratidan mamnun ekanini aytaypti. O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida o'tgan Qirg'iz kinosi kunlarining ochilish marosimida Qirg'iziston Kinematografiya departamenti direktori Aqjoltoy Bekbolotov, "Qirg'izfilm" milliy kinostudiyasi direktori Aida Usonova,

Qirg'iziston xalq artisti, kinorejissyor Ortiqboy Suyundqov, rejissyor Oybek Dairbekov, Qirg'iziston Kinematografiya uyushmasi raisi Talay Qulmendeyev, Qirg'iziston xalq artisti, rejissyor Nurlan Abdiquodirov bilan suhbatda bo'lganimizda ham ular ayni fikrlarni takrorladi.

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatriga jam bo'lgan ikki el teatr aktyorlari, soha vakillari o'zaro kelishuvlarga ham ulgurdi. Qirg'iz teatr ijodkorlari tomonidan namoyish etilgan "Somonchining yo'li" spektakli boshlanishidan avval Qirg'iz milliy akademik drama teatri rahbari Asilbek O'zbekovni suhbatga chorladik.

O'zbek eli bilan azaldan qanotdosh bo'lib kelayotganimiz madaniyati kunlari tadbirlarida yaqqol sezildi, — deydi A.O'zbekov. — Teatr sohasidagi tajriba almashuvlarimiz, gastrol safarlarimiz sonini ko'paytirish haqida gaplashdik. Nasib qilsa, sentyabrda biz o'zbek hamkasblarimizni Qirg'izistonda kutib olamiz. Bundan butun elimiz xursand bo'ladi. Zero, 1985-yildan buyon qirg'iz sahnasidan tushmay kelayotgan "Kelinlar qo'zg'oloni", "Temir xotin", "Kuyov" spektakllaringiz tomoshabinlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan ko'rib kelinaypti. O'sh shahridagi Bobur nomidagi O'zbek musiqali drama teatri esa ikki xalq do'stligining ramzi bo'lib taqdi.

Qirg'iz xalqi bilan madaniy aloqalarimiz, madaniyat kunlarining ahamiyati haqidagi fikrlarimizni bir maqolaga sig'dirib bo'lmaydi. Shu o'rinda Chingiz Aytmatovning quyidagi fikrlarini keltirsa: "Qadimiy o'zbek madaniyati o'zining ajoyib yutuqlari bilan azaldan mashhur. O'zbeklar O'rta Osiyoda tengi yo'q irrigator, dehqon sifatida tanilgan. O'zbek me'morlari fursunkor Samarqand, Buxoroni bunyod etdi. O'zbek xalqi orasidan o'rta asrning mashhur astronom olimi Mirzo Ulug'bek, shoir Alisher Navoiy yetishib chiqdi... Vizantiya madaniyati rivojida rimliklar qanday rol o'ynagan bo'lsa, o'zbeklar ham O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga ana shunday ta'sir o'tkazdi".

Buyuk shaxslarim bo kabi fikr va ehtiromi xalqlar o'rtasidagi qardoshlik aloqalarini, hukumatlararo do'stona tashqi siyosatni yanada mustahkamlaydi.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2550. 42368 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sardo Tolibboyev Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy